

ALISHER NAVOIY RUBOIYLARINI INNOVATSION TA'LIM TEXNALOGIYALARI ASOSIDA O'RGATISH USULLARI

Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani

22- umumta'lim maktabning oliy toifali o'qituvchisi

Alloyorova Manzura Ibragimovna

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar orqali o'quvchilarda fanga oid akademik bilimlarni shakllantirish, ruboiy ustida ishlash jihatlari tahlil qilingan. Tanlangan metodni qo'llash orqali o'quvchilarning tarixga, milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishlari ortadi. O'quvchilar mavzuga ijodiy yondashadi, erkin o'z fikrlarini bildirishga harakat qiladilar. Bu bilan ularning mustaqil fikri teranlashadi, dunyo qarashi o'sadi, darsga qiziqishi ortadi, topqirligi, zukkoligi, tezkorligi, faolliklari oshib boradi.

KALIT SO'ZLAR: innovatsion metod, ruboiy, tahlil, Alisher Navoiy.

I. KIRISH

Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o'qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo'ladi. Ma'lumki, ta'lim olish jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa birov- ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin. Ta'lim olish jarayoni esa turli xil metodlarga tayangan holda kechadi.

II. METODIKA

Metod – grekcha *metodos* so'zidan olingan bo'lib, izlanish yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot ma'nosini anglatadi.

Ta'lim metodini - ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining ma'lum maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga va tartibga

solingan yo‘l-yo‘rig‘i sifatida ta‘riflash mumkin. Ta‘lim metodlarini ta‘lim maqsadlariga erishish bo‘yicha o‘quvchi va o‘qituvchining birgalikdagi ish faoliyatini tashkil qilishning belgilari bo‘yicha quyidagicha guruhlarga bo‘lish mumkin:

- **O‘qituvchi markazda bo‘lgan uslublar;**
- **O‘quvchi markazda bo‘lgan innovatsion uslublar.**

Odatda dars jarayoni ikki yoki undan ortiq asosiy uslublardan tashkil topadi va bu uslublar dars mavzusiga to‘la muvofiq bo‘lib, o‘quvchilarning bilim va tajribasi qay bosqichda ekanligiga qarab qo‘llaniladi.[3]

O‘qituvchi markazda bo‘lgan uslub. Bu uslub orqali o‘qituvchi o‘zi egallagan ma‘lumot va ko‘nikmalarni o‘quvchilarning sezgi organlari orqali uzatish yo‘llarini qidiradi. Bunda o‘quvchilarning ishtiroki passiv bo‘ladi, ya‘ni ular tinglaydilar, kuzatadilar va ma‘ruzalarni yozib boradilar.

Bu uslublar asosan o‘qituvchining quyidagi faoliyat turlari orqali amalga oshiriladi:

Og‘zaki o‘qitish usuli (ma‘ruza, hikoya)

Insonlar o‘rtasidagi eng sodda muloqot yo‘llaridan biri – og‘zaki nutq – og‘zaki ta‘rif yoki asosiy mazmunning ogzaki ifodasi hisoblanadi. Bu uslub butunlay «so‘zlash» orqali amalga oshiriladigan o‘qitishning eng rasmiy uslubi hisoblanadi. U 40 daqiqa yoki undan uzoqroq davom etadi va odatda o‘quvchining ishtiroki uchun hech qanday imkoniyat qoldirmaydi. Bunda asosan o‘quvchining eshitish qobiliyati ishga solinadi.

Tasviriy ifodalarni qo‘llash usuli (illustratsiya)

Bu faoliyat orqali yetkazilishi kerak bo‘lgan bilim yoki malakalarni tasvirlovchi rasmlar orqali o‘quvchilarning ko‘rish qobiliyati ishga solinadi. O‘quvchilarga yetkazilmokchi bo‘lgan ma‘lumotlar tasvirlab berish orqali, turli simvollar yordamida yetkaziladi. Bunday tasviriy ifodalar quyidagi vositalar yordamida amalga oshiriladi: doska, maxsus oq doska, flipchart, video tasvir, videoproyektor, kodoskop, kompyuter grafiklar, magnit taxta, rasmlar, suratlar, bo‘yoqli rasmlar, grafik va jadvallar, diagrammalar, namunaviy va maxsus shaffof qog‘ozga tushirilgan tasvirlar.

Namoyish etish usuli (demonstratsiya) O‘qituvchi ma‘lum bir asbob yoki jihozdan foydalanish vazifasini yoki topshiriqqa aloqador harakatlarni namuna sifatida

namoyish etib berishi mumkin. Yakka holda namoyish etish o'quvchini ko'rish qobiliyatidan foydalanishga undaydi.

III. TAHLIL VA NATIJALAR

O'quvchi markazda bo'lgan innovatsion uslublar. Bu uslublar qo'llanilganda o'qituvchi o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. O'quvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- o'quvchini yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari ortirilgan bilimni ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini o'quvchining ehtiyojiga muvofiq lashtirilishi.
- o'quvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi;
- o'qishni sog'lom muhitda saqlab qolinishi;
- o'qituvchining yengillik yaratib beruvchi shaxsga aylanishi.

O'quvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Shu sababdan, o'quvchining bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yetarli darajada o'quvchilar ishtiroki va amaliyoti mavjud bo'ladi.[4]

6-sinf adabiyot darslarida “ G'azal mulkining sultoni” Alisher Navoiyning ruboiylari mavzusi bilan o'quvchilarni tanishtirishda quyidagi ta'limiy o'yinni tavsiya qilamiz. [5]

XOTIRANI MUSTAHKAMLASH O'YINI

Bu usul darslikda berilgan ruboiy bilan o'quvchilar tanishib bo'lgach, zehnini sinash uchun, yoki uyga vazifa sifatida berilgan ruboiyni yod olganini tekshirish uchun qo'llaniladi. Buning uchun o'quvchilarga ruboiy yozilgan qog'oz tarqatiladi. Ruboiy ichidagi ayrim so'zlar o'zgartirib qo'yiladi. O'quvchilar esa ana shu xatolikni topib, ruboiy tagida berilgan jadvalga joylaydilar.

Natijaviyligi:

- ✓ Ziyraklik oshadi;
- ✓ Mustaqil fikrlash ko'nikmasi rivojlanadi;

- ✓ Qiyosiy o‘rganish rivojlanadi.
- ✓ So‘z ajratish malakasi rivojlanadi.

To‘g‘risi

Ko‘nglungni orit barcha yomon xislatdin

Kim, yaxshi qiliq dalil erur rahmatdin.

Badxo‘ylik ul vahshat erur shiddatdin

Kim, elga xaloslik yo‘q vahshatdin.

Noto‘g‘risi

Qalbingni orit barcha yomon xislatdin

Kim, yaxshi qiliq dalil erur rahmatdin.

Badxo‘ylik ul sharoit erur shiddatdin

Kim, elga xaloslik yo‘q vahshatdin.

Lug‘at ishi

oritmoq – ketkazmoq, aritmoq qiliq – odat rahmat – marhamat, muruvvat
badxo‘ylik – qo‘pollik vahshat – vahima, xavf-xatar

Shu tariqa ruboiylar ustida ishlanadi.

-Aziz bolajonlarim almashib qolgan so‘zlarni topingchi?

O‘quvchilar almashtirilgan so‘zlarni topadilar:

IV. MUHOKAMALAR

Alisher Navoiy ijodini sinflarda an’anaviy o‘qitish usullari, shubhasiz o‘quvchilarga bilimlarini oshirishga yordam beradi va o‘quvchilar sinfdagi munozaralar, amaliy ishlar va ma’lumotlarni o‘zlashtirib oladilar. Shunga qaramasdan, darslarda turli metodlar, ta’limiy o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini va bilimni oshirishi mumkin, bu esa o‘quv jarayonida ularning akademik ko‘rsatkichlarini oshiradi. Sinfda o‘yinlardan foydalanish bo‘yicha o‘quvchilarning fikr-mulohazalari juda ijobiy va ular o‘qitish jarayonidagi foydalanilgan ta’limiy o‘yinlar haqida fikr bildirishadi.

V. XULOSA

O‘quvchilar o‘z ustozlari darsidan har jihatdan mamnun bo‘lsinlar. Ularda yuksalish bo‘lsin, tafakkuri rivojlansin, amaliy faoliyat, ijodiy qobiliyat, o‘qish-

o‘rganish va mehnatga havas kuchaysin. O‘quvchilar dars jarayonidan so‘ng olgan baholari bilan emas, balki bilim va malaka hosil qilganliklarini, ma‘naviy oziq olganliklarini his qilsinlar. Dars jarayoning qiziqarli va tushunarli bo‘lishi O‘qituvchi bilan o‘quvchilarning qalbini va ruhini bir-biriga mustahkam bog‘laydi, ular o‘rtasidagi samimiy hurmat va o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi. Buning uchun o‘qituvchi, avvalo, o‘z fanini va uni o‘qitishning metod, usul va vositalarini mukammal o‘zlashtirib olishi, o‘qituvchi-murabbiyga xos madaniyatning yuqoriligiga erishishi, o‘z o‘quvchilariga hurmat va muhabbat ifoda eta olishi, ularni hayotga qiziqtirishi va ularning ruhiy holatlarni bilishi va tushunishi, bosiqlik bilan o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olishi, tashqi ko‘rinishi va kiyinish madaniyati bo‘yicha ibrat bo‘lishi, nutq madaniyatining yuqoriligi va ijtimoiy faolligi, ayniqsa, omma o‘rtasida ilmiy-ma‘rifiy va ma‘naviy-madaniy ishlarning targ‘ibotchisi bo‘lishi lozim. Shunda darsda ko‘zlangan maqsadlarga o‘qituvchi ham, o‘quvchi ham birgalikda yetishadi.

VI. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dolgorukov A. Metod case-study kak sovremennaya texnologiya professionalno - orientirovannogo obucheniya: http://www.vshu.ru/lections.php?tab_idq3&aqinfo&idq2600
2. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari G` Muslimov N.A., Usmonboeva M.h., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-150- b.
4. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat H. T. Omonov, M. B. Xattabov Toshkent -2016 -yil 138-b.
5. Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.